

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA KASBIY DEFORMATSIYANI NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.

Andijon davlat pedagogika instituti

Musiqqa ta’lim yo‘nalishi talabasi

Xo‘jaobod tumani 19-umumiy o‘rta
ta’lim maktabi musiqqa fani o‘qituvchisi

Makkamov Dostonbek Rustambek o‘g‘li

Annatsiya: Ushbu maqolada kasbiy deformatsiyaning sabablari va uning bartaraf etish haqida fikr yuritiladi. Kasbiy deformatsiyani kamaytirish va professional rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun o‘z-o‘zini boshqarish hamda psixologik yordam mexanizmlarini kuchaytirish zarurligi bo‘yicha umumiy ma’lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar : kasbiy deformatsiya, stress, professional rivojlanish, psixologik barqarorlik,

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy faoliyati ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘inini tashkil etadi. Chunki aynan boshlang‘ich ta’lim bosqichida bolalarda shaxs shakllanishi, bilimga qiziqish, mustaqil fikrlash va jamiyatda o‘z o‘rnini topish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar rivojlanadi. Ushbu jarayonning samarali tashkil etilishi, asosan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi tomonidan qo‘llaniladigan usullar va pedagogik yondashuvlarga bog‘liq. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy salohiyati, ruhiy holati va ishga yondashuvi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Deformatsiya – DEFORMATSIYA (lot. deformatio —buzilish)¹ jism shaklining tashqi kuchlar ta’sirida o‘zgarishi, bu jismning hajmi yoki shaklining o‘zgarishiga olib

¹ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi D harfi «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti T.2017 220-bet. <https://www.ziyouz.com>.

keladi. Bu o'zgarishlar jism zarralarining nisbiy holatining o'zgarishi natijasida ro'y beradi. Kasbiy deformatsiya shaxsiyat va ijtimoiy munosabatlarga jiddiy ta'sir qiluvchi muhim psixologik holat bo'lib, bu o'zgarishlar ayniqsa yuqori darajadagi stress va xavfli sharoitlarda ishlaydigan xodimlarda kuchli namoyon bo'ladi. Shu sababli har bir kasb egasi o'z salomatligi va ijtimoiy munosabatlari uchun deformatsiyadan saqlanishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llashi muhimdir. Kasbiy deformatsiya shaxsning kasb bilan bog'liq o'zga rishlari bo'lib, unga ijtimoiy, psixologik va hissiy omillar ta'sir qiladi. Bu uzoq muddatli kasbiy faoliyat davomida shaxsda yuzaga keladigan salbiy psixologik va xulq-atvor o'zgarishlaridan iborat bo'lib, ayniqsa inson bilan ishlaydigan va yuqori emotsional resurslarni talab qiladigan kasblarda, jumladan, boshlang'ich sinf o'qituvchi larida keng kuzatiladi. Kasbiy deformatsiya bu shaxsning ma'lum kasb faoliyatiga bog'liq holda psixologik, hissiy va xulq-atvor o'zgarishlariga uchrashi jarayoni bo'lib, ko'pincha kasbning o'ziga xos talablari va sharoitlari tufayli yuzaga keladi va vaqt o'tishi bilan professional faoliyat, muloqot uslublari hamda kundalik hayotga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Psixologik deformatsiyaning umumiy professional, kasbiy-tipologik, individual va maxsus turlari mavjud. Bularning har biri kasbiy faoliyat davomida turli darajalarda shakllanadi va shaxsning fikrlash, xulq-atvor, hissiyot va munosabatlariga ta'sir qiladi.

Umumiy professional: Biror kasb bilan shug'ullanuvchi barcha odamlarga xos bo'lgan deformatsiya.

Kasbiy-tipologik: Ma'lum bir kasbning psixik xususiyatlarining shaxs xususiyatlariga asta-sekin o'tishi.

Individual: Turli kasblar egalari uchun xos bo'lgan, shaxsiy xususiyatlarga asoslangan deformatsiya.

Maxsus: Ma'lum bir kasb (masalan, o'qituvchi, buxgalter, shifokor, advokat) bilan bog'liq bo'lgan deformatsiya.

O'qituvchilik kasbi nafaqat puxta bilim va pedagogik mahoratni, balki sabr-toqat, yuqori darajadagi mas'uliyat va ruhiy barqarorlikni ham talab etadi. Ushbu bosimlarning doimiy ta'siri o'qituvchi shaxsida ishdan zavqlanishning kamayishi, o'ziga va

o‘quvchilarga nisbatan befarqlikning ortishi, pedagogik samaradorlikning pasayishi kabi holatlarga olib keladi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan boshdan kechiriladigan kasbiy deformatsiyaning oqibatlarini o‘qituvchi faoliyatining barcha sohalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi:

birinchidan, shaxsiy rivojlanishga ta‘sir qilib, o‘qituvchining professional o‘shishga bo‘lgan qiziqishini pasay tiradi, bu esa uning shaxsiy va kasbiy stagnatsiyasiga olib keladi;

ikkinchidan, pedagogik jarayonga ta‘sir qilib, innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkoniyatlarini chek laydi va faqat rutikaga asoslangan, sust yondashuvlarga tayanishga olib keladi;

uchinchidan, ijtimoiy ta‘sir jihatidan o‘qituvchini jamoadan uzoqlashtiradi, jamoaviy ishlarga qiziqishni kamaytiradi, bu esa ta‘lim muassasasidagi umumiy muhitga salbiy ta‘sir qiladi;

to‘rtinchidan, o‘quvchilarga ta‘sir qilib, o‘qituvchining emotsional resurslari kamayadi, bolalar bilan samimiy aloqa o‘rnatishda qiyinchiliklar paydo bo‘ladi, natijada o‘quvchilarning o‘zini erkin his qilmasligi, o‘zlashtirish darajasining pasayishi va ta‘limga bo‘lgan qiziqishning yo‘qolishi kuzatiladi.

Deformatsiya natijasida o‘qituvchilarda asabiylashuv, qoniqmaslik hissi va kasbiy charchoq paydo bo‘ladi, bu esa uzoq davom etsa, jismoniy va ruhiy sog‘likka jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Kasbiy deformatsiyaning oldini olish uchun psixologik qo‘llab-quvvatlash, ya‘ni o‘qituvchilarni stressni boshqarish, sog‘lom muloqot usullarini o‘rganish va emotsional farovonlikni ta‘minlovchi maslahatlar bilan ta‘minlash zarur. Shuningdek, rivojlanish imkoniyatlarini yaratish – doimiy malaka oshirish kurslari, seminarlar va innovatsion treninglar orqali o‘qituvchining pedagogik saviyasini oshirish;

- ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash – tajriba almashish, jamoaviy ishni kuchaytirish uchun doimiy guruhlar tashkil etish;

- hissiy barqarorlikni ta‘minlash – o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish va professional muvozanatni saqlash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu tarzda,

boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy deformatsiyasining oldini olish va bu jarayonni chuqur o'rganish ta'lim tizimini takomillashtirish, o'qituvchilarning ishda o'zini to'liq amalga oshirishi hamda o'quvchilarning sifatli ta'lim olishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev I. (2019). Kasbiy stress va deformatsiya (2-nashr). – Buxoro: Buxoro universiteti. Aminova S.,
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi D harfi «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti T.2017 220-bet. <https://>
3. Axmedov O. (2020). Kasb psixologiyasi. – Toshkent: Sharq nashriyoti.
4. Практическая психодиагностика. Методики и тесты / ред. Д.Я. Райгородский. – Самара.
5. Jalilovna M. M. M. (2024). Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini amalga oshirish uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari. Ijtimoiy fanlarda innovatsiya onlayn ilmiy jurnali, 4(2), 128-131.
6. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy deformatsiyani shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar. (2025).

Foydalanilgan saytlar :

1. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15389968>
2. [://www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com).